



**O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va ta’lim: bo‘lajak
pedagoglarning metodik salohiyatini oshirish imkoniyatlari**

Mo'minova Adiba

Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

magistranti, Pedagogika fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi va ta’lim: bo‘lajak pedagoglarning metodik salohiyatini oshirish, asosiy vazifalardan biri bo‘lgan ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha belgilangan muhim vazifalar va oshirilayotgan amaliy islohotlar bo‘yicha so‘z yuritiladi. Ta’limga qaratilgan e’tibor hamda ta’lim olish huquqi va imkoniyati kengaytirilganligi, o‘qituvchilar konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘lganlari haqida qisqacha sharh berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, pedagog, taraqqiyot strategiyasi, talaba, pedagogik maqom.

Ma'lumki, ta'lim - tarbiya insonga borliqni anglash sir asrorlarini tushunish, tinimsiz rivojlanayotgan dunyoga moslashish, dunyoqarashini shakllantirish, nihoyat, jamiyatni insonparvarlantirishga hissa qo'shish imkonini yaratadi. Har qanday davlatning qudrati va rivojlanish darajasini aynan ta'lim tizimi aniqlab beradi. Davlatning ushbu tizimga munosabati, uning kelajagini belgilaydi.

Bugungi kunda Ozbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi: -maktabgacha ta'lim; -umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limi; -professional ta'lim -oliy ta'lim;



- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining bunday turlarining har bir bosqichida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bunday ishlarni tarixan qisqa davr uchun misli ko'rilmagan rivojlanish sifatida baholash mumkin. Bunday shiddatli rivojlanish bugungi kun uchun yetarlidek ko'rinadi. Lekin, har qanday yangilik boshqa yangilikning kirib kelishiga turtki bo'ladi. Respublikamizda 11 yillik umumiy o'rta ta'lim, akademik litsey va texnikumlar tizimini shakllanganligi, ularning kadrlar yetishtirib berishdagi o'rni beqiyos.

Bundan tashqari talim tizimida uzviylik va uzluksizlik masalalarini yuqori darajada ko'rib chiqilishi yo'lga qo'yilgan bo'lib, tarkibiy qismlarining funksiyalari aniq belgilangan va o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni tizimli bajarilishini ta'minlashni talab etmoqda. Odatda, davlat talablarni bajarilishini statistik tizim orqali baholanib boriladi. Bunday statistik qarash va baholash o'zining qator ustunliklari bilan ajralib tursada, dinamik tizimlarda ro'y berishi mumkin bo'lgan ba'zi holatlarga e'tibor bilan qarash imkonini beramaydi.

Pedagogik innovatsiya ta'limning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uzluksiz pedagogik ta'limni klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi,



yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta'lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir.

Pedagogik ta'lim rivojlanishining klaster tizimi ta'lim berish, o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari o'rtasida uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalaridan foydalanish kabi yo'nalishlarda xususiylashadi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri aloqadorlik, uzviylik, izchillik, vorisiylik, zamonaviylik, yo'naltirilganlik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi.

Pedagogik ta'lim klasteri faoliyatining asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- pedagogika sohasida samarali vorisiylikni ta'minlash va eng yaxshi o'quvchilarni pedagog kasbiga targ'ib qilish;
- pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini amaliyotga tayangan holda va manfaatdor subyektlar bilan samarali aloqasini intensiv ta'minlagan holda olib borish;
- bo'lajak ta'lim mutaxassislarini innovatsion tajribaga ega bo'lgan amaliyotlar bazasida tayyorlash muhitini yaratish;
- yosh mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarni egallash davrini qisqartirish;
- talabalarni bugungi jadal rivojlanish jarayonlarida bevosita ishtirok etishini ta'minlash;
- pedagogik ta'limda yangi avlod o'quv, o'quv-metodik, ilmiy adabiyotlar, vositalar va didaktik materiallar majmuasini yaratish;
- pedagogik ta'lim ilmiy, ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish;



- pedagogik ta'limni rivojlantirishning dolzarb masalalari atrofida intellektual resurslarni integratsiyalash;
- ta'lim, fan va pedagogik amaliyotning turli shakl va turlarini izlab topish va ta'limga tatbiq etish;
- ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish;
- pedagog kadrlarni tayyorlashda maktabgacha, o'rta ta'lim va OTM hamda boshqa talabgorlar bilan o'zaro tezkor qayta bog'lanish imkoniyatini yaratish;
- pedagogik ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi aloqadorlik, bog'liqlik va hamkorlik zaruriyatini ilmiy asoslash.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamiyatimizning bugungi rivojlanish bosqichida uzluksiz ta'lim tizmini pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ta'limda ichki va tarmoqlararo aloqadorlikni ta'minlaydigan, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik muassasalarda to'plangan tajriba va erishilgan ilmiy yutuqlarni ta'lim hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga yetib borishini samarali amalga oshiradigan yaqin kelajakdagi eng muhim tizim sifatida taqdim etilmoqda. Bunda ta'lim muassasalari va jamiyat boshqa manfaatdor tomonlarining o'zaro uzviy va uzluksiz aloqasini ta'minlash, ta'lim jarayonining pirovard mahsuli - har tomonlama yetuk pedagog kadrlarni yetishtirish va jamiyatga naf keltirishi uchun ilmiy, ijodiy, ma'naviy, iqtisodiy imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki kadrlar bilim saviyasi va raqobatbardoshligi iqtisodiy ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo'jaligi va jamiyatning boshqa sohalari taraqqiyoti va raqobatbardoshligining asosidir. Boshlagan har bir ishimizdagi sifat va samara aynan shu masala bilan chambarchas bog'liqligini rivojlangan mamlakatlar tajribasi va qolaversa hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi.



Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мусурмонов Р. "Булажак уқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда инновацион ёндашувлар" Multidisciplinary Peer Reviewed
2. Journal hamkorligidagi Xalqaro onlayn konferensiya. 2020-йил 18-19 июнь, Самарканд.
3. Rasulov, R. (2021). COUNTERAGENT VALENCE OF STATE VERBS (ON THE MATERIAL OF THE UZBEK LANGUAGE). Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 673-680.
4. Хайитов, О. Э. (2020). Моделирование психологической компетентности руководителя: концептуальный эмпирический анализ.
5. <https://uza.uz/uz/posts/maktab-talimini-rivozhlantirish-umumkhal-arakatiga-aylanishi-23-08-2019>